



"SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARI BAADIYATI "

Ochilova M.T.

O'zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent

Annotatsiya : *Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning hikoyalari va uning ijodi to'g'risida so'z boradi. Shukur Xolmirzayev o'n sakkiz yoshida adabiyotimiz olamiga shahdam odimlar bilan kirib kelgan yozuvchilarimizdan biri hisoblanadi. Yozuvchining ilk ijodiy asari hikoya janri bilan bevosita bog'liq. Har qanday adabiy asar tahlili haqida gap borar ekan, adabiyotdan tashqari o'sha adabiyotni yaratgan yozuvchi shaxsini ham e'tibordan soqit qilmasdan o'rganishga chorlaydi. Uning har bir hikoyasi o'ziga xos lingvistik jihatdan boyligi va sotsiologik ahamiyati bilan ajralib turadi.*

Kalit so'zlar: *Shukur Xolmirzayev, baadiyat, janr, shaxs, nasr, sotsiolingvistika*

"ПОЭЗИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА"

Очилова М.Т.

Национальный Университет Узбекистана, Ташкент

Аннотация: *В этой статье рассказывается о рассказах Шукура Холмирзаева и его творчестве. Шукур Холмирзаев в восемнадцать лет вошел в мир литературы вместе с шахдамом одимом. Раннее творческое творчество писателя напрямую связано с жанром рассказа. Говоря об анализе любого литературного произведения, помимо литературы, автор, создавший эту литературу, также призывает к изучению своей личности, не упуская из виду. Каждая из его историй отличается своим лингвистическим богатством и социологической значимостью.*

Ключевые слова: *Шукур Холмирзаев, баадият, жанр, личность, проза, социолингвистика*

"POETRY OF THE WORKS OF SHUKUR KHOLMIRZAEV"

Ochilova M.T.

National University Of Uzbekistan, Tashkent

Annotation: *this article will talk about the stories of Shukur Kholmirzayev and his work. Shukur Kholmirzayevon is one of our writers who entered the world of our literature at the age of eight with shahdam Adim. The writer's first creative work is directly related to the genre of the story. When it comes to the analysis of any literary work, in addition to literature, the writer who created the same literature invites him to*



learn without losing sight of his personality. Each of his stories is distinguished by its unique linguistic richness and sociological significance.

Keywords: *Shukur Kholmirezayev, baadiyat, genre, personality, prose, sociolinguistics*

Mavzuning dolzarbligi: Shukur Xolmirzayev XX asr o'zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan taniqli yozuvchi. U o'zining yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan betakror nasri bilan o'zbek xalqi ma'naviyatining yuksalishida o'ziga xos o'ringa ega. Shukur Xolmirzayev o'n sakkiz yoshida adabiyotimiz olamiga shahdam odimlar bilan kirib kelgan yozuvchilarimizdan biri hisoblanadi. Yozuvchining ilk ijodiy asari hikoya janri bilan bevosita bog'liq. Har qanday adabiy asar tahlili haqida gap borar ekan, adabiyotdan tashqari o'sha adabiyotni yaratgan yozuvchi shaxsini ham e'tibordan soqit qilmasdan o'rganishga chorlaydi. Yozuvchi hayotiy jarayonlarni hikoyalarida yoshlik va talabalik yillarining o'ziga xos romantikasi sifatida ifodalagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, yozuvchi tug'ilib o'sgan Boysun tumanida yashovchi turfa tabiatli kishilar hayoti, jamiyatda va ular ruhiy olamida kechgan kurash va o'zgarishlar o'zining badiiy talqinini topgan.

Ularning ko'pchiligi ekspressiv xarakterda bo'lib, qo'llanishiga ko'ra turli xususiyatga egadir. Badiiy asarlarda qo'llangan undalmalarni semantik va stilistik funktsiyasiga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin.

a) shaxs; b) shaxs bo'lmagan jonli predmet; v) jonsiz predmet.

undalmada so'zlovchining tinglovchiga qo'shimcha munosabati mavjud bo'ladi, shuningdek, undash bilan bir o'rinda, ekspressivlik ham ifodalanadi. Undalmalar o'zida turli modal ma'nolarni tashiydigan o'tkir, ta'sirchan vositadir. Shu jumladan bilan boshlanadigan "Omon ovchining o'limi" hikoyasi qahramoni omon ovchi tirik mavjudotlarni o'ldirishga juda mukkasidan ketgan kishi edi. Yozuvchilar ta'riflaganidek: "Mabodo ovdan quruq qaytsa-u bamisoli otasi o'lganidek aza tutardi..." Hozirgi kunda tabiatni muhofaza qilish va uni asrash kabi dolzarb muammolar paydo bo'lmoqda. Shukur Xolmirzayevning "Omon ovchining o'limi" hikoyasida tabiatdagi barcha narsalar o'z o'rniga ega qilib yozilgan. Oxirgi voqealarning nima bo'lishi esa barchamizga saboqdir. O'quvchilar bu asarni o'qib, tabiatdagi barcha jonivorlarga achinadi. O'qigan kishi tabiatda mavjud hodisalarga befarq bo'lmaslikni tushunadi. Shu orqali yozuvchimiz ovchining qanday o'lim topishi misolida har bir harakatimizning javobi borligini eslatib qo'yadi. Bugungi kunda biz yoshlar bu asarni o'qib, oilada qanday muhit yaratishimizni, farzandlarni qanday tarbiyalashimizni, o'z yaqinlariga mehr- e'tibordan boshqa narsa kerak emasligini, ajdodlarimiz ishlatib kelgan "gunoh", "qon tutadi" kabi tushunchalarning qanchalik ahamiyatliligini, eng muhimi, yashab turgan olamimizdagi har bir jonzotning ham yashashga haqqi borligini ich-ichimizdan his qilishga odatlantirish lozim.



Sh.Xolmirzayev hikoyalari ham sotsiologik, ham lingvistik jihatdan yuksak tavsifga ega ekanligi tahlillar misolida o'z tasdig'ini topib bormoqda. Muammoning o'rganilganlik darajasi: Sotsiolingvistika o'tgan asrning 60-yillaridan o'rganib kelindi.

Sotsiolingvistik tadqiqotlarda ham "til sohibi" bilan bog'liq holda tadqiq qilish ishlari amalga oshiriladi. Hozirgi kunga kelib, til birliklarining nutqiy voqeylanishini sotsial tabaqa va toifalar bo'yicha xoslanishini tadqiq etish kuchaymoqda. Ayni tilni til egasi bilan tadqiq qilish borasida qator tadqiqotlar maydonga keldi. Matnning antoposentrik tadqiqi ustida ilmiy ishlar olib borilgan va "Til egasi" tushunchasi hozirgi vaqtda tilshunoslikda asosan quyidagi ma'nolarda ishlatilmoqda:

- a) Muayyan tilde nutqiy faoliyatni amalga oshiruvchi, ya'ni nutq tuzish va uni idrok etish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxs
- b) Tildan muloqot vositasi sifatida foydalanuvchi shaxs, kommunikant;
- c) O'z millatining milliy-madaniy, ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi lug'at tarkibini egallagan, uni namoyon etuvchi shaxs, muayyan til vakili

Aynan, antoposentrik yo'nalish bilan bog'liq pragmalingvistika, lingvokulturalogiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi tilshunoslik fani yo'nalishlari rivojlanmoqda. Hozirgi davr tilshunosligida yangi paradigmalarni jiddiy ahamiyat berilayotgan bir paytda sotsiolingvistik yondashuv da jonli nutqni tadqiq qilish, badiiy matnlarini o'rganish shuningdek, til birliklarining sotsial xoslanishini "lison-nutq" tamoyili asosida tekshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Sotsiolingvistika tilshunoslikning boshqa yo'nalishlaridan tadqiq predmetining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va muayyan bir sharoitda ma'lum bir axborotni nutq birliklari vositasida tinglovchiga yetkazish, bu jarayonda so'zlovchi va tinglovchi sotsial belgi-xususiyatlarini tadqiq qiladi.

Sotsiolingvistika asosiy e'tiborini lisoniy imkoniyatlarning ijtimoiy xoslanish (ijtimoiy mavqeyi, jinsi, yoshi) qaratsa, buni pragmatik vaziyat hamkorligini inobatga olmasdan amalga oshirish mumkin emas. Hozirgi kunga kelib sotsiolingvistlar diqqati jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlarining nutqiga qaratildi. XX asr tilshunoslik fani F.de Sossyur asos solgan sistem tilshunoslik nomi bilan bog'liq. Bu tilshunoslik XX asrda falsafada va davrning eng ilg'or fani fizikada o'zaro aloqalari borligini ham, uni o'rganish jarayonini ham ikki bosqichi: moddiy shaklda insonga bevosita kuzatishga berilgan, ya'ni ko'rilishi, sezilishi, o'lchanishi mumkin bo'lgan hodisa, yakkalik, alohidalik, voqelik oqibati va bevosita kuzatishga berilgan hodisalar ostida turgan mohiyat, umumiylik, imkoniyat sabablarini farqlash, ulardan birini kuzatish, tajriba asosida tavsiflash, ikkinchisini esa, aqliy idrok asosida ochish bilan uzviy bog'liq.

Tadqiqot maqsadi: Shukur Xolmirzayev hikoyalarining sotsiolingvistik xususiyatlarini aniqlik tahlillar asosida ochib berish



Tadqiqot materiallari: Shukur Xolmirzayev hikoyalari, sotsiolingvistik tadqiqotlar, ilmiy ishlar

Tadqiqot natijalari: XX asr tilshunosligida, ya'ni strukturalizmدا hozirgi kunda diskurs deb ataladigan, mohiyatan esa fikr almashinish jarayoni ikki tarkibiy qismga ajratildi:

- 1) bevosita kuzatishda har xil moddiy shaklda berilgan nutq (paroli);
- 2) nutq uchun imkoniyat sifatida inson ongida joylashgan til (lison)-(langue).

Sotsiolingvistika atamasi ikki tarkibiy qismdan iborat bo'lib, lotincha socialis - jamiyat va lingua - til so'zlaridan tashkil topgan. U ijtimoiy tilshunoslik demakdir.

Tilshunoslikda u quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi:

1. Til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabat, ya'ni jamiyat hayoti va rivojlanishida tilning o'rni, aksincha, tilning taraqqiyotida jamiyatning ahamiyati.

2. Tilda millatning ijtimoiy guruhlanishi munosabati bilan bo'ladigan farqlar.

Fan va texnika taraqqiyoti va XX asr o'rtalarida vujudga kelgan sotsial o'zgarishlar tufayli tilshunoslik fani ham boshqa fanlar qatori jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Sotsiolingvistika fani faqat tilshunoslik va jamiyatshunoslik fanlari orasidagi munosabatlarni emas, balki falsafa, ijtimoiy psixologiya, etnografiya, tarixga va boshqa fanlarga oid masalalarni ham qamrab oladi.

Fanda ushbu yo'nalishga bo'lgan qiziqishning kuchayishi turli sabablarga bog'liq bo'lib, ular quyidagilar:

1. Jamiyatning ilmiy asoslangan til siyosatiga bo'lgan ehtiyoji.

2. Struktural tilshunoslikning tilning faqat ichki tuzilishini o'rganishga bo'lgan qiziqishi.

Ma'lumki, til tizimining sotsiolingvistik tahlili uning u yoki bu ijtimoiy va etnomadaniy muhitda qanday faoliyat ko'rsatishi, qaysi vositalarni bajarishini o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. Ana shu tahlil asosida tillarning sotsiofunktsiyaviy tasnifini yaratish mumkin, ayrim hollarda tillarning ijtimoiy farqi o'ta darajada sezilarlidir. Ular unda so'zlovchilar soni, qo'llanish chegarasi, bajarayotgan ijtimoiy vazifalari, hayotiyli va boshqa xususiyatlari jihatidan o'zaro keskin farq qiladi. Bu xususiyatlar har bir tilning sotsial va kommunikativ mohiyatini belgilab beradi.

Sotsial lingvistika til va nutqni farqlab, tilni, uning birliklarini moddiy voqelanishdan uzib, paradigmalarga birlashtirib, umumiy ma'nolarni o'rganishga intilsa, sotsiolingvistika nutq parchalarini muayyan qo'llanish sharoitida ko'rib chiqadi. Masalan,

-- Qanaqa mo'yna edi? Norkami? Qorako'lmi? Andatrami?

-- Quyong edi.

-- Alohida belgisi bormidi?

-- Telpakningmi?

-- Quyongning! Quyongning rangi qanaqa edi?

-- Kulrang edi.

-- Erkakmidi?



-- Telpakfurushmi?

-- Quyoni! – dedi starshina rostmana bo'g'ilib. O'. Hoshimov)

Suhbat nutqidan iborat bo'lgan tilshunos uchun tadqiq manbai bo'lolmaydigan bu matn, topikdir, ya'ni jonli nutq jarayonidir. Vaholanki, tilshunos grammatik nuqtai nazardan mazkur topikning tarkibiy qismlari boshqacha shakllanishi zarur edi, ya'ni telpakning terisi nimadan edi? Quyoning emas, telpakning rangi qanaqa edi va h.

Yoki: -- Qanchadan?

-- Sakkiz yuz.

-- Olti yuz.

-- Bo'lmaydi.

-- Yetti yuz.

-- Yo'q (Oluvchi va sotuvchi o'rtasidagi muloqot).

Makrosotsiologiyaning diqqat markazida esa bir sotsial guruh bilan ikkinchi bir sotsial guruh o'rtasidagi nutqiy muloqot yotadi. Mikro va makrosotsiologiyani bir-biridan ajratib bo'lmashligining asosiy sababi ham har qanday ijtimoiy guruh ayrim shaxslardan tashkil topgan bo'lishi bilan bog'liqdir. Har bir shaxs mazkur guruh uchun umumiy bo'lgan tildan foydalanadi va shu bilan birga o'ziga xos nutqiy xususiyatlarga ham ega bo'ladi. Bu xususiyatlar bir tomondan, shaxsning o'ziga xos psixologiyasiga, ikkinchi tomondan, bu shaxs a'zo bo'lgan kichik sotsial guruhning kasb-hunariga ham bog'liq. Demak, bu guruhning o'ziga xos atama va jargonlari bo'lishi mumkin. Lekin bu guruhlar milliy hududning qayerida yashamasin, u mazkur milliy tilga aloqador bo'lsa, shu milliy til normasidan chiqib ketmaydi, balki milliy tilning bir ko'rinishida, variantida gapiradi. Tabiiyki, mikrosotsiologiyaviy erishgan yutuqlar makrosotsiologiyaviy tadqiqotlari uchun zamin vazifasini bajaradi.

Xulosa: Adib asarlari qahramonlari aksari uning o'zi tug'ilib o'sgan tuproq – Surxon diyorining mehnatkashlaridir. Asar voqealari sodir bo'ladigan manzil ham ko'pincha shu voha bo'ladi. Shu voha qahramonlari timsoli misolida adib o'zbek xalqining, o'zbek tuprog'ining o'ziga xosliklarini tajassum etadi. Yozuvchi asar qahramonlarini oqlamaydi ham, qoralamaydi ham. Asosiy e'tiborni ularning qalbi, ma'naviyati, do'stlarga, yangi hayotga, o'zgarishlarga munosabatini ko'rsatishga qaratadi va hukm chiqarishni o'ziga qoldiradi. Adib asarlarining g'oyalari bir-birini to'ldirib boradi, tasvirlangan qahramonlar harakatidan, tabiatidan chiqarilgan xulosalar bir-birini yanada boyitadi, milliy o'zligimizning turli qirralarini alohida xarakterlar orqali tasvirlab, xalq qiyofasidagi yaxlit qiyofaning turli jihatlarini ochib beradi. Yozuvchi asarlari tasvirida tirikchilik qiyinchiliklari bilangina o'ralashib qolmaydi, ma'naviyat masalalariga ham alohida e'tiborni qaratadi. Zamon talotumlari ma'naviyatimiz mustahkamligi va mustaqilligida jiddiy salbiy iz qoldirayotganiga ishora qiladi. Uning hikoyalar turli shaklda keladigan noverbal shakllarni ko'rishimiz va hikoyalarda noverbal sotsial birliklar orqali jamiyatdagi holatlarni ochib berganligini guvohi bo'lamiz. Xulosa qilib aytganda, badiiy asar tilida barcha nutq



uslublari elementlari o'z aksini topgan bo'ladi. Uni tadqiq qilish har bir yozuvchi yoki shoirga xos uslub manerasini aniqlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N. Nutq madaniyati va boshqa fanlar //o'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2007. N1. -B. 13.
2. Деериев Ю. Социальная лингвистика К основам общей теории-М Наука 1977 Швейсер А.Д. Современная социолингвистика. Теория проблемы методы- М Наука 1976.
3. Hymes D/ Model of the interaction of languages and social life. Directions in sociolinguistics-N Y 1972-C40 41
4. Швейсер А.Д. Современная социолингвистика Теория.проблемы.методы-М Наука1976-С 59
5. Швейсер А.Д.. Ko'rsatilgan asarlar B-59
6. Нколский Л.Д роль языка в разбивющихся странах-М1974-Н2-с99-100
7. Швейсер А.Д ko'rsatigan asarlar- b63
8. Бондаетов В.Д. Социальная лингвистика –М Просвещение1987-с10
- 10 Нормуродов Р. Социолингвистика- термиз2008-Б4
9. Hojiyev A Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati-Toshkent O'zME,2002-B.93
10. H.Ne'matov, Jo'rayev B Sotsiolingvistika-Vuxoro2004B-46
11. Бееков В.И. Крысен .П.Л Социолингвистика-М.2001 –С.177
12. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность-М Наука.1987-Б-19
13. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi-Toshkent Fan,2013-B6
14. Боркачев Ю.Н. Лингвокультурология языковая личность концепт .становление антропосентрической парадигмы в языкознании.. филологические науки М-2001.№1-С 8-11
15. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi – Toshkent Fan-1987-B19
16. Боркачев С. Т. Лингвокультурология. ..Филолог. науки.М-2001-Н1 Б8-11